ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Eshchanov Rahimbergan Egamberganovich

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

XORAZM VILOYATINING UMUMIY IJTIMOIY-IQTISODIY KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanishiga xos hududiy jihatlar kompleks yondashuv asosida tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar — tabiiy resurslar salohiyati, aholi tarkibi, investitsiya darajasi, ishlab chiqarish tuzilmasi va infratuzilma rivojlanish holati atroflicha o‘rganildi. Bundan tashqari, iqlim sharoitining o‘ziga xosligi, suv tanqisligi hamda ekologik muammolarning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri ham alohida tahlil qilindi.

Metodologik jihatdan SWOT-tahlil usulidan foydalanilib, hududning ichki va tashqi omillari — ustun va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda ehtimoliy xavf-xatarlar tizimli ravishda aniqlab berildi. Olingan natijalarga asoslanib, hudud iqtisodiyotining ustuvor rivojlanish yo‘nalishlari sifatida qayta tiklanuvchi energiya, zamonaviy agrotexnologiyalar, turizm va xizmatlar sektorini rivojlantirish masalalari belgilandi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va barqaror rivojlanishni ta’minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar

Xorazm hududi, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy taraqqiyot, SWOT yondashuvi, investitsion faoliyat, infratuzilma rivoji, demografik salohiyat, qishloq xo‘jaligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, turizm industriyasi, iqtisodiy imkoniyatlar, barqaror o‘sish, resurslardan samarali foydalanish, hududiy siyosat

Hozirgi davrda jahon xo‘jaligida hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasining nomutanosibligi dolzarb muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Mamlakatlar va ularning ichki mintaqalari kesimida iqtisodiy o‘sish sur’atlari, ishlab chiqarish hajmlari hamda aholi turmush darajasi o‘rtasida sezilarli tafovutlar kuzatiladi. Xalqaro statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, “…2024-yilda global yalpi ichki mahsulotning asosiy qismi iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlar hissasiga to‘g‘ri kelib, bu holat hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikning yuqori darajada ekanligi”[1]ni tasdiqlaydi. Mazkur tendensiyalar hududiy iqtisodiy rivojlanishni tizimli va chuqur o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shunday sharoitda O‘zbekiston iqtisodiyotida ham hududlar kesimida rivojlanish darajasini baholash masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Rasmiy statistik ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “…2024-yilda mamlakat viloyatlari o‘rtasida yalpi hududiy mahsulot hajmi va ayniqsa aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjud”[2]. Ayrim hududlarda ushbu ko‘rsatkichlar respublika o‘rtacha darajasidan bir necha

[1] World Bank. World Development Indicators. https://data.worldbank.org

[2] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. https://stat.uz

baravar yuqori yoki past darajada shakllangan. Shu nuqtai nazardan, Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini asosiy statistik indikatorlar tizimi asosida kompleks tahlil qilish mazkur tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.


D.D. Davletyorova, A.G. Abdullayev va G‘. Bekbergenov[3]larning **ilmiy ishlarida** Xorazm viloyati iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlari ko‘p qirrali tizim sifatida talqin etilib, uning shakllanishi tarmoqlar tarkibi, ishlab chiqarish salohiyati hamda hududning iqtisodiy imkoniyatlaridan foydalanish darajasi bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berilgan. Tadqiqotlarda viloyat iqtisodiyoti dinamikasini belgilovchi asosiy omillar sifatida agrar sektor, sanoat ishlab chiqarishi va xizmatlar sohasining o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi. Shu bilan birga, hududda investitsiya jarayonlarining faollashuvi, tadbirkorlik subyektlari sonining ortib borishi hamda ishlab chiqarish infratuzilmasining bosqichma-bosqich takomillashuvi iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi muhim shartlar sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy izlanishlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, hudud iqtisodiyotining rivojlanish sur’atlari alohida ko‘rsatkichlar emas, balki ularning o‘zaro uyg‘unlashgan holdagi ta’siri orqali shakllanadi va aynan shu holat uni kompleks yondashuv asosida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu ilmiy mulohazalar hududlar iqtisodiyotining rivojlanishini tahlil qilishda an’anaviy usullar yetarli emasligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Xususan, amaliy tadqiqotlarda ko‘pincha faqat alohida statistik ko‘rsatkichlar bo‘yicha olib boriladigan tahlillar hudud iqtisodiyotining haqiqiy holatini to‘liq va obyektiv aks ettira olmaydi. Buning asosiy sababi shundaki, hududiy rivojlanish jarayoni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ko‘plab iqtisodiy omillar ta’sirida shakllanadi. Ularning har birini alohida-alohida baholash esa umumiy manzarani yetarli darajada ochib bera olmaydi.

Shu sababdan, hudud iqtisodiy rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarni yagona yaxlit tizimga birlashtirish, ularning o‘zaro bog‘lanishini hisobga olgan holda izchil va chuqur tahlil qilish, shuningdek, umumlashtirilgan bahoga erishish imkonini beradigan yangi yondashuvni ishlab chiqish zarurati tug‘ilmoqda. Ana shunday yondashuv hudud iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlarini yanada chuqurroq ochib berish, mavjud tendensiyalarni aniqroq aniqlash va keyingi tahlil bosqichlarini metodik jihatdan mustahkam asoslashga imkon yaratadi.

Yuqoridagi tahlil va xulosalardan kelib chiqib, hudud iqtisodiy rivojlanishini uning o‘ziga xos xususiyatlarini to‘liq hisobga olgan holda tizimli ravishda baholash zarurati yuzaga keladi. Shu maqsadda tadqiqot doirasida hudud iqtisodiy rivojlanishini baholashning bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan algoritmi ishlab chiqildi(2.1.1-rasm).

[3] Davletyorova D. D. Xorazm viloyati iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi //Экономика и социум. – 2025. – №. 2-1 (129). – С. 150-153., Abdullayev A. G. et al. Xorazm viloyati iqtisodiyotning o’sish nuqtalari va ularning rivojlanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlari //Экономика и социум. – 2023. – №. 5-2 (108). – С. 9-18., Bekbergenov G. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish (xorazm viloyati misolida) //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2025. – №. 13. I. – С. 90-99.



2.1.1-rasm. Xorazm viloyati iqtisodiy rivojlanishini baholash algoritmi[4]

Ishlab chiqilgan yondashuv hudud iqtisodiy rivojlanishini tizimli va kompleks baholashga qaratilgan bo‘lib, u bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bir nechta ketma-ket bosqichlardan iborat. Dastlabki bosqichda hudud iqtisodiyotining haqiqiy holatini aks ettiruvchi asosiy statistik ko‘rsatkichlar tanlab olinadi va ularning mazmuniy mohiyatiga ko‘ra mantiqiy guruhlarga ajratiladi.

[4] Muallif ishlanmasi


Keyingi bosqichda esa ushbu ko‘rsatkichlar rasmiy statistik ma’lumotlar bazasiga asoslanib chuqur o‘rganiladi, ularning vaqt bo‘yicha dinamikasi, o‘sish tendensiyalari va tarkibiy o‘zgarish xususiyatlari aniq belgilanadi.

Bundan tashqari, tahlil jarayonida ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va ta’sir darajasi hamda hudud iqtisodiy rivojlanishiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashga alohida e’tibor beriladi. Yakuniy bosqichda barcha olingan natijalar umumlashtirilib, hudud iqtisodiy rivojlanishining umumiy holati bo‘yicha yaxlit baho shakllantiriladi hamda aniqlangan asosiy tendensiyalarga asoslangan ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqiladi.

Mazkur metodik yondashuv asosida Xorazm viloyati iqtisodiyotining rivojlanish xususiyatlarini aniqlash maqsadida tanlab olingan asosiy ko‘rsatkichlar tizimi bo‘yicha batafsil statistik tahlil o‘tkazildi.

Xorazm viloyatining iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashda yalpi hududiy mahsulot (YaHM) ko‘rsatkichlari muhim o‘rin tutadi. Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2015–2025-yillar davomida viloyatda YaHM hajmi barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2015-yilda 8940,9 mlrd so‘mni tashkil etgan mazkur ko‘rsatkich 2025-yilga kelib 62987,5 mlrd so‘mga yetgan bo‘lib, bu davr mobaynida uning hajmi qariyb 7 barobarga oshganini ko‘rsatadi.

Tahlil qilinayotgan davrda YaHMning o‘sish sur’atlari ham ijobiy dinamikaga ega bo‘lib, ayrim yillarda yuqori o‘sish ko‘rsatkichlari kuzatilgan. Jumladan, 2021-yilda o‘sish sur’ati 111,1 foizni tashkil etib, bu tahlil davridagi eng yuqori natijalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim yillarda o‘sish sur’atlarining nisbatan sekinlashuvi ham kuzatiladi, masalan, 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 99,5 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu iqtisodiy jarayonlarda muayyan tashqi va ichki omillar ta’siri mavjudligini ko‘rsatadi(2.1.2-rasm).



2.1.2-rasm. 2015-2025-yillarda Xorazm viloyatining YHM hajmi va o‘sish su’rati[5]

Hudud iqtisodiy rivojlanish darajasini yanada aniqroq baholashda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi hududiy mahsulot ko‘rsatkichi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu ko‘rsatkich

[5] O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (https://stat.uz) ma’lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

hududda yaratilgan iqtisodiy qiymatning aholi soniga nisbatan taqsimlanishini ifodalaydi hamda aholining iqtisodiy farovonlik darajasi haqida muayyan tasavvur beradi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Xorazm viloyatida aholi jon boshiga YaHM hajmi 2015–2025-yillar davomida izchil o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2015-yilda 5759,6 ming so‘mni tashkil etgan ushbu ko‘rsatkich 2025-yilga kelib 30713,5 ming so‘mga yetgan bo‘lib, bu davr mobaynida uning hajmi qariyb 5 barobardan ortiq oshganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi “2022–2026-yillarda Xorazm viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 154-sonli qarori // https://lex.uz
2. Ascani A., Crescenzi R., Iammarino S. Regional economic development //A Review, SEARCH WP01/03. – 2012. – С. 2-26., Rodríguez-Pose A. Do institutions matter for regional development? //Regional studies. – 2013. – Т. 47. – №. 7. – С. 1034-1047.
3. Ermetov A. Mintaqa iqtisodiy tizimini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. (2025). Innovations in Science and Technologies, 2(7), 17-26.
4. https://gov.uz/oz/xorazm/pages/about
5. Karppi I., Kokkonen M., Lähteenmäki-Smith K. SWOT-analysis as a basis for regional strategies. – Nordregio, 2001.
6. Zhang R., Zhong X. SWOT Analysis of the regional economic development of Western Part of Guangdong Province—Take Zhanjiang City as a case study //Modern Economics & Management Forum. – 2022. – Т. 3. – №. 2. – С. 96-105.
7. Лапыгин Д. Ю. Методы анализа факторов развития региона //Региональная экономика: теория и практика. – 2016. – №. 2 (425). – С. 159-168.
8. Руднева Н. И., Шпаковская В. С., Захарова О. И. SWOT-анализ развития региональных территорий: вызовы, угрозы и факторы, влияющие на экономическую безопасность //Наука и образование. – 2022. – Т. 5. – №. 4. – С. 233.